

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING BILISH JARAYONLARINI TEKSHIRISH METODIKALARI

Madraimova Gulshoda Xayrulla qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Logopediya ixtisosligi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish jarayonlarini tekshirish metodikalari yoritilgan. Unda diqqat, xotira, tafakkur, idrok va nutq jarayonlarini aniqlashda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, ko'rish nuqsonining bolaning bilish faoliyatiga ta'siri hamda individual yondashuv asosida diagnostika olib borishning ahamiyati bayon etilgan. Tadqiqot jarayonida multisensor yondashuv, kuzatish, suhbat va maxsus didaktik topshiriqlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar, bilish jarayonlari, diagnostika, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, psixologik-pedagogik metodikalar, multisensor yondashuv, maxsus pedagogika.*

Rivojlanish jarayonidagi ko'rishdagi chuqur nuqsonlar bilish faoliyatining barcha turlariga ta'sir etadi hamda bolani shaxsiy va emotsional-irodaviy doirasini shakllanishida kuzatiladi. Ko'rishni keskin buzilishi olinayotgan ma'lumotni umumiy xajmini pasaytiradi hamda sifatini o'zgartiradi. Ko'rish hislarining qisman kamayishi yoki to'liq bo'lmasligi idrok, xotira, shuningdek psixologik tizimlari uning strukturasi, ichki funktsiya tizimlarining o'zaro bog'liq tomonlarini, tasavvur obrazlarining shakllanishini hissiy bilish jarayonlarini chegaralab qo'yadi. Obrazlarni shakllanishida o'ziga xoslik yuzaga kelishi, tushunish, nutq, aqliy qobiliyat orqali tushunib obra-zlarni o'zaro bog'lay olish, fazoda mo'ljal ola olish va x.k.lar analizatorlarning o'zaro sifatli tizimida o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

L.S.Vigotskiy turli nuqsonlarga bolalarni psixik rivojlanishini qonuniyatlarini o'rganish jarayonida turli nuqsonlarda namoyon bo'ladigan umumiy o'ziga xos qonuniyatlari ajratgan. U anomaliyani yuzaga keltiruvchi sabablar birlamchi nuqson sifatida keluvchi psixik faoliyatni asosiy nuqsonlarini yuzaga keltiradi, natijada bu bolani psixik rivojlanishini o'ziga xos o'zgartirib, psixik faoliyat ik-kilamchi, uchlamchi va x.k. nuqsonlarini yuzaga keltiradi.

Ko'rish analizatori buzilishiga ega bolalarda bilish jarayonlarini o'rganish maxsus pedagogika va psixologiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki ko'rish nuqsonlari bolaning sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bunday bolalarda bilish jarayonlarini tekshirish umumiy pedagogik diagnostikadan farqli ravishda maxsus metodikalar asosida olib boriladi. Bu metodikalar bolaning individual imkoniyatlari, yosh xususiyatlari, nuqson darajasi va kompensator rivojlanish holatini hisobga olgan holda tanlanadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish-da maqsadli materialining moslashuvi bolalar tomonidan aniq va to'g'ri idrokni talab etadi hamda tiflopsixologdan ushbu kasallikni

tashxisini bilish va tekshirilayotgan bolaning asosiy ko'ruv funksiyalari xolatini: ko'ruv o'tkirligi, rangli ko'ruvi, ko'rish xarakterini bilishini talab etadi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik tekshirishda foydalaniladigan maqsadli - stimuli material xarakteriga qo'yiladigan umumiy talablar. Maqsadli materialning asosiy talablari quyidagilar hisoblanadi:

1) ob'ekt va tasvirlarning fonga nisbatan yorqinligi 60-100% yorqinlikda bo'lishi kerak.

2) -oq fondagi qora ob'ektlarni,

-qora fondagi oq ob'ektlarga nisbatan yaxshiroq farqlaydilar.

3) -tabiiy ob'ektlar va predmetlarni kattaligi bo'yicha mutanosib kelishi,

4) -ob'ektning tabiiy rangi bilan mos kelishi;

5) -yuqori rang yorqinligi 80-95%;

6) -yaqin, o'rta, uzoqni aniq ajratish. Ko'rsatilayotgan ob'ektlarni kattaligi bolaning yoshi va ko'ruv imkoniyatlariga ko'ra shifokor - oftalmolog bilan birgalikda aniqlanadi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bilish jarayonlarini tekshirishning asosiy maqsadi ularning psixik rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, mavjud qiyinchiliklarni belgilash hamda korreksion-rivojlantiruvchi ishlar mazmunini to'g'ri tashkil etishdan iborat. Tekshirish metodikalari kompleks yondashuv asosida olib borilib, kuzatish, suhbat, test, eksperiment va maxsus diagnostik topshiriqlardan foydalaniladi.

Bilish jarayonlarini tekshirishda kuzatish metodi muhim o'rin tutadi. Bu metod orqali bolaning tabiiy faoliyati, xulq-atvori, diqqati, atrof-muhitni idrok etishi va faoliyat jarayonidagi xususiyatlari o'rganiladi. Kuzatish dars jarayonida, o'yin faoliyatida va kundalik muloqotda olib borilishi mumkin. Bu metod bolaning tabiiy holatini baholash imkonini beradi.

Suhbat metodi ham diagnostik jarayonda keng qo'llaniladi. Suhbat orqali bolaning bilim doirasi, fikrlash xususiyatlari, nutq rivojlanganligi, tushunchalar hajmi va mantiqiy fikrlash darajasi aniqlanadi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan suhbat jarayonida savollar ularning yoshiga va idrok imkoniyatlariga mos ravishda tuziladi.

Bilish jarayonlarini o'rganishda psixologik-pedagogik eksperiment alohida ahamiyatga ega. Bu metod maxsus tashkil etilgan topshiriqlar yordamida sezgi, idrok, xotira, tafakkur va diqqat holatini o'rganishga imkon beradi. Eksperimental metod bolaning mavjud imkoniyatlarini chuqurroq aniqlashda samarali hisoblanadi.

Amaliyotda bir qator standart psixodiagnostik metodikalardan moslashtirilgan holda foydalaniladi. Jumladan:

Raven progressiv matritsalar (John C. Raven)


Maqsad: Bolaning mantiqiy tafakkuri, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish qobiliyatini aniqlash.

Kerakli materiallar: Raven matritsalar jadvali, yiriklashtirilgan yoki kontrastli rasmlar, relefli shakllar (ko'r bolalar uchun), javob varaqasi

Ko'rsatma va jarayon: Bolaga rasmlar orasidagi bog'lanishni topish va bo'sh qolgan qismga mos variantni tanlash tushuntiriladi. Topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab

beriladi. Bola mustaqil ravishda javob beradi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun shakllar paypaslash orqali ham taqdim etilishi mumkin. Misol uchun: 1 -katta doira, 2-kichik doira, 3- katta kvadrat bo'lsa, bola keyingi element kichik kvadrat bo'lishi kerakligini mantiqan topadi.

Baholash mezonlari: To'g'ri javoblar soni, topshiriqni bajarish tezligi, mantiqiy bog'lanishni tushunish darajasi, mustaqil fikrlash qobiliyati



Piktogramma metodi

Maqsad: Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv xotirasi, tushuncha hosil qilish va assotsiativ tafakkur rivojlanishini aniqlash.

Kerakli materiallar: Relefl yoki taktil belgilar, oqartirilgan qog'oz, qalam yoki marker, maxsus kartochkalar

Ko'rsatma va jarayon: Bolaga bir nechta so'z yoki tushunchalar og'zaki aytiladi. Bola ularni eslab qolish uchun oddiy belgi, relefli shakl yoki og'zaki assotsiatsiya yaratadi. Keyinchalik shu belgilar yoki tasvirlar asosida so'zlarni qayta eslash so'raladi. Zaif ko'ruvchi bolalarda yirik va kontrastli tasvirlardan foydalaniladi.

Baholash mezonlari:

Eslab qolingani tushunchalar soni

Assotsiativ bog'lanishning aniqligi

Belgilar orqali ma'lumotni qayta tiklash darajasi

Mustaqil fikrlash va tushuncha hosil qilish qobiliyati



“10 ta soʻzni eslab qolish” metodikasi

Maqsad: Koʻrishida nuqsoni boʻlgan bolalarda eshituv xotirasi hajmi va mustahkamligini aniqlash.

Kerakli materiallar: 10 ta sodda va tushunarli soʻz roʻyxati, natijalarni qayd etish jadvali, tinch va chalgʻitmaydigan muhit

Koʻrsatma va jarayon: Tadqiqotchi 10 ta soʻzni aniq va sekin oʻqib beradi. Bola eslab qolgan soʻzlarini qayta aytadi. Soʻzlar bir necha marotaba takrorlanadi va har safar eslab qolish darajasi qayd etiladi. Ushbu metodika koʻr bolalarda asosiy kompensator jarayon boʻlgan eshituv xotirasini baholashda muhim hisoblanadi.

Baholash mezonlari:

Toʻgʻri qayta aytilgan soʻzlar soni

Takrorlashdan keyingi natijaning yaxshilanishi

Eshituv orqali eslab qolish barqarorligi

Soʻzlarni ketma-ket eslab qolish darajasi



Korrektur sinovlar

Maqsad: Koʻrishida nuqsoni boʻlgan bolalarda diqqatning barqarorligi, koʻchishi va jamlanishini oʻrganish.

Kerakli materiallar: Yirik shriftli yoki relefli belgilar jadvali, kontrastli kartochkalar, qalam, sekundomer

Koʻrsatma va jarayon: Bolaga jadval ichidan maʼlum harf, raqam yoki belgilarni topish vazifasi beriladi. Zaif koʻruvchi bolalar uchun yirik va kontrastli materiallar, koʻr bolalar uchun esa relefli yoki taktil variantlardan foydalaniladi. Vazifa maʼlum vaqt davomida bajariladi.

Baholash mezonlari:

- Toʻgʻri topilgan belgilar soni
- Xatolar miqdori
- Diqqatning barqarorligi
- Vazifani bajarish tezligi



Taktil differensiasiya topshiriqlari

Maqsad: Ko'r bolalarda taktil sezgi, predmet idroki va fazoviy tasavvurni baholash

Kerakli materiallar : Turli teksturali buyumlar, relefli geometrik shakllar, har xil hajmdagi predmetlar, matoli xaltacha

Ko'rsatma va jarayon: Bolaga predmetlarni qo'l bilan paypaslab aniqlash va farqlash topshiriladi. U shakli, hajmi, yuzasi yoki teksturasiga qarab buyumlarni nomlaydi, taqqoslaydi yoki guruhlarga ajratadi. Metodika ko'r bolalarda sezgi organlarining kompensator rivojlanishini aniqlashga yordam beradi.

Baholash mezonlari:

Predmetlarni to'g'ri farqlash darajasi

Taktil sezuvchanlik rivojlanganligi

Fazoviy tasavvur holati

Vazifani bajarish aniqligi va tezligi



Veksler metodikasi elementlari

Maqsad: Bolaning intellektual rivojlanishi, bilish jarayonlari, og'zaki tafakkuri, xotirasi, diqqati va mantiqiy fikrlashini aniqlash hamda baholash.

Kerakli materiallar : Og'zaki savollar va topshiriqlar to'plami

Yirik hajmli yoki taktil rasmlar

Predmetlar va relefli kartochkalar

Audio materiallar (zarur hollarda)

Javoblarni qayd etish varaqasi

Qalam va qog'oz

Ko'rsatma va jarayon: Bolaga uning yoshiga mos ravishda og'zaki va amaliy topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar sodda va tushunarli tarzda izohlanadi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun topshiriqlar asosan eshitish, sezish va og'zaki idrok asosida tashkil etiladi. Masalan:

- Savollarga og'zaki javob berish
- Predmetlarni ushlab taqqoslash
- Son yoki so'zlarni eslab takrorlash
- Tushunchalarga izoh berish
- Oddiy mantiqiy savollarni yechish

Baholash mezonlari:

- To'g'ri javoblar soni
- Nutq rivojlanganligi
- Xotira darajasi
- Tafakkur va mantiqiy fikrlash rivoji
- Diqqatning barqarorligi
- Topshiriqni bajarish tezligi va mustaqilligi



Bilish jarayonlarini tekshirishda kompleks diagnostika tamoyili muhimdir. Ya'ni faqat bitta metod emas, bir nechta metodlar uyg'unligida xulosa chiqariladi. Chunki bir metod orqali bolaning rivojlanishini to'liq baholab bo'lmaydi.

Shuningdek, diagnostikada individual yondashuv tamoyiliga rioya qilish zarur. Chunki ko'rish nuqsonining darajasi, paydo bo'lish vaqti, bolaning tajribasi va kompensator rivojlanishi turlicha bo'lishi mumkin. Shu bois tekshirish metodikasi har bir bola uchun moslashtiriladi.

Shunday qilib, ko'rish analizatori buzilishlarida bilish jarayonlarini tekshirish metodikalari maxsus diagnostik yondashuvga asoslangan bo'lib, ular bolaning psixik rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganish, korreksion ishlarni samarali tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurkeldiyeva, D. A. (2019). Pedagogik-psixologik diagnostika. Toshkent (Darslik)
2. Po'latova, P. M., Nurmuxamedova, L. Sh., Yakubjonova, D. B. (2014). Maxsus pedagogika. Toshkent: "Fan va texnologiyalar" (Darslik)
3. Xamidova, M. U. (2018). Maxsus pedagogika. Toshkent (Darslik)
4. Болдинова, О. Г. Методика развития зрительного восприятия детей с нарушениями зрения различных возрастных групп. Москва. (2022)